

Sherzodjon CHORIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: sherzodch42@gmail.com
Tel: 97 7520746

Tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), M.Darmonova taqrizi asosida

O'ZMADA SAQLANAYOTGAN O'ZBEKISTON SSR TARIXIY HUJJATLAR TASHQI TAHLILI (1924-1941 YILLARI)

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Milliy arxividagi saqlanayotgan O'zbekiston SSRning 1924-1941 yillarga oid hujjatlarining manbashunoslik nuqtai nazaridan tashqi tahlil etish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada arxiv hujjatlarining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, arxiv manbalarining yozuvni, qog'ozlari neografik, neopaleografik va tarixiy diplomatika maxsus tarix fanlarining tadqiqot usullari yordamida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Milliy arxiv, O'zbekiston SSR, mikrofilm, raqamli nusxa, sovet hokimiyati, paleografiya, neografiya, diplomatika.

ВНЕШНИЙ АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКИХ ДОКУМЕНТОВ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР, ХРАНЯЩИХСЯ В НАЦИОНАЛЬНЫХ АРХИВАХ УЗБЕКИСТАНА (1924-1941 ГОДЫ)

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам внешнего анализа документов Узбекской ССР 1924-1941 годов, хранящихся в Национальном архиве Узбекистана, с точки зрения источниковедения. В статье описаны виды архивных документов и их характеристика. Также были проанализированы записи и документы архивных источников с использованием исследовательских методов специальных исторических наук неографической, неопалеографической и исторической дипломатики.

Ключевые слова: Национальный архив Узбекистана, Узбекская ССР, микрофильм, цифровая копия, Советская власть, палеография, неография, дипломатика.

EXTERNAL ANALYSIS OF HISTORICAL DOCUMENTS OF THE UZBEKISTAN SSR STORED IN THE NATIONAL ARCHIVES OF UZBEKISTAN (1924-1941)

Annotation

This article is devoted to the issues of external analysis of documents of the Uzbek SSR of 1924-1941, stored in the National Archives of Uzbekistan, from the point of view of source study. The article describes the types of archival documents and their characteristics. Records and documents from archival sources were also analyzed using research methods of special historical sciences of neographic, neo-palaeographic and historical diplomacy.

Key words: National Archive of Uzbekistan, Uzbek SSR, microfilm, digital copy, Soviet power, paleography, neography, diplomatics.

Dolzabligi. Bugungi kunda arxiv manbashunosligi sohasi nafaqat respublikamizda balki, MDH davlatlaridan Rossiya, Belorusiya, Ukraina va boshqa davlatlarda tezkor rivojlanmoqda. Ushbu yo'naliш manbalarning bir turi bo'lgan arxiv hujjatlarining manbaviy ahamiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, respublikamiz Milliy arxiv fondi 16 mln.dan ortiq saqlov birligiga ega bo'lib, ulardan 8 mln.dan ortig'i doimiy saqlanuvchi hujjatlar hisoblanadi. Aynan ushbu hujjatlarining tarixiy manbaviy jihatdan o'rganilishi, ilmiy iste'molga kiritilishi O'zbekiston tarixining sovet davriga oid ko'plab yangi tarixiy ma'lumotlar bilan boyitilishiga sabab bo'ladi.

O'rta Osiyo davlatlari ichida O'zbekiston Milliy arxiv (keyingi o'rinnlarda O'zMA deb beriladi) tarixiy hujjatlarga eng boy arxiv hisoblanadi. bugungi kunda O'zMA da 1,8 mln. dan ortiq tarixiy hujjatlar saqlanib, ularning 800 mingdan ortig'i sovet davriga tegishli hisoblanadi.

Aynan ushbu hujjatlarni manbaviy tahlil etish, ilmiy tadqiqotchilarga havola etish, tarix sohasidagi tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarga muhim yo'lko'rsatkich vazifasini o'taydi.

Tadqiqot usullari va adabiyyotlar sharhi. Arxiv hujjatlarini tashqi tahlil etishda tarix va manbashunoslik sohasining yordamchi fanlari bo'lgan paleografiya va diplomatika maxsus tarix fanlarining tadqiqot metodlaridan foydalananish orqali bir qancha samarali natijalarini qo'lgan kiritish mumkin.

Paleografiya maxsus tarix fani har qanday tarixiy manbaning tashqi tahlili ya'ni, manbaning yozuvni, siyohi, qog'ozni, muallifi, sanasi, aslligi, kabi ma'lumotlarni aniqlaydi. Bugungi kunda zamonaviy yozuvlarni neopaleografika maxsus tarix fani o'rganadi va tahlil etadi. O'z navbatida tarixiy diplomatika maxsus tarix fani tarixiy hujjatlarining yozuvni, muallifi, aslligi, hujjatning tarkibiy tuzilishi, devonxonada yoki boshqa joyda yozilgani kabi ma'lumotlarni tahlil etadi. Aynan ushbu maxsus tarix fanlarining tadqiqot metodlari ham O'zbekistonning sovet davri arxiv hujjatlarini manbaviy tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga qadar ushbu mavzu tarixiy nuqtai nazaridan bir qator mualliflar tomonidan o'rganilgan. Xususan, rossiyalik va belorusiyalik tadqiqotchilardan S.O.Smidt, V.I.Tixonov, M.N.Chernomorskiy [1] S.G.Kuleshov [2], YE.M.Burova [3], I.YE.Xvorovalar [4] tomonidan arxiv hujjatlarining manbaviy xususiyatlarni ochib berishga bag'ishlangan ilmiy maqola va monografiyalar nashr etilgan. O'zbekiston tarixchilardan N.V.Mandalskaya [5], L.M.Landa, A.N.Xalfin [6], V.G.Ioffe [7], Sh.SH.Choriyevlar tomonidan ham kino-foto-fono hujjatlar, Turkiston ASSR arxiv hujjatlarining manbaviy tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston SSR arxiv fondlari tarkibida saqlanayotgan tarixiy hujjatlar o'zida muhim tarixiy ma'lumotlarni saqlagan manbalar hisoblanadi. Aynan ushbu hujjatlarni ish yuritish, arxivshunoslik va tarixiy manbashunoslik fanlari kesimida tahlil etish va turkumlashtirish masalalari ham ularning tarixiy manbaviy ahamiyatini yanada ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hujjatlar jamiyat, davlat va shaxsiy munosabatlar jarayonida vujudga keladi. 1980 yillarning o'rtalarida B.S.Illizarov tomonidan hujjat tadqiqot obe'kti sifatida chuqur izlanishlar olib borgan. Muallif o'z tadqiqotida hujjatshunoslik, informatika va manbashunoslik sohalarini kesimida hujjat tushunchasiga izoh berishga harakat qilgan [8].

Ammo hujjatlarning tarixiy manba bo'lib shakllanishida ham ma'lum bir bosqichlar mavjud. Arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarning ma'lum bir qismi tarixiy hujjat sifatida doimiy saqlovga olinadi. Bugungi kunda ish yuritish jarayonida foydalanayotgan oddiy hujjat tarixiy hujjat yoki manba bo'lishi uchun uch bosqichni bosib o'tadi.

Birinchi bosqich bu hujjatning yaratilishi va ish jarayonida foydalanish muddati. Ikkinci bosqichda hujjatning foydalanish muddati tugagach, tashkilotning idoraviy arxivida vaqtinchalik saqlovga olinadi va u arxiv hujjatiga aylanadi. Uchinchi bosqichda esa hujjatning vaqtinchalik saqlov muddati tugagach, eksperti tekshiruv komissiyasi qaroriga ko'ra, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlari doimiy saqlash uchun qabul qilinadi va u tarixiy hujjatga aylanadi.

Arxiv hujjatlarini tahlil etish va turkumlashtirishda avvalo ularning turlari, tashqi xususiyatlari, yozuvi, tili va saqlanish holatiga e'tibor qaratish lozim.

Manbashunos olim S.O.Shmidt fikriga ko'ra, qachonki tarixiy manba tarixiy tadqiqot obyektiga aylangandagina o'ziga xos tarixiy manbaga aylanadi. Bundan oldingi bosqichda manbaning tarixiy manbaviy ahamiyati yashirin bo'ladi [9]. Aynan bu fikrlarni arxivshunos olim V. N. Avtokratov ham qo'llab-quvvatlaydi va tarixiy hujjat ustida manbashunoslik tadqiqoti olib borilmasa, u oshkor etilmagan o'tmish haqida ma'lumotlarni o'zida saqlovchi vosita bo'lib qoladi xolos deb ta'kidlab o'tadi [10].

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida hujjatlarining turlari ko'payib bormoqda. 1980 yillarda Arxivshunoslik nazariysi va uslubiga oid adabiyotlarda arxiv hujjat turlariga qog'ozlarda qayd etilgan matnli hujjat, ilmiy texnik, kino, foto, ovozli, mikrofilm va boshqa turlari qayd etilgan [11].

Shunga ko'ra, O'zMAAdagi O'zbekiston SSR tarixiga doir arxiv hujjatlari tarixiy manbashunoslik nuqtai nazaridan ular shakli yoki turiga ko'ra, qog'oz, mikrofilm va raqamli [12] hujjat turlariga bo'linadi.

O'zbekiston SSR arxiv fondlarida saqlanayotgan qog'ozli hujjatlar qog'ozlarda qayd etilgan matnli hujjat, ilmiy texnik va bosma shakldagi (gazeta, instruksiya varaqalari va boshqalar.) hujjat turlariga ajaratish mumkin. Qog'ozli hujjatlarda ma'lumotlar qo'lyozma, pechat mashinkasi va bosma shaklda qayd etilgan.

Qo'lyozma hujjatlar qalam, siyohli ruchkalarda yozilgan. Qalamda qayd etilgan matnlar qizil, ko'k rangda ko'p uchraydi. Ba'zi hollarda qizil qalamda imzo quyliganini ham ko'rish mumkin. Siyohli ruchkalardagi matnlar ko'k, qora, to'q ko'k ranglarda uchraydi. Ruchkalarda matnlar ko'proq fuqarolarning ariza murojatlari, anketa hujjatlarida o'chraydi.

O'zbekiston SSR davlat organlarining ish yuritish hujjatlarining katta qismi pechat qilish mashinkalarida qayd etilgan. Pechat qilish mashinkalarida qayd etilgan matnlar binafsha, qora, to'q ko'k, ayrim hollarda pushti rangda ham uchraydi. O'zbekiston SSR hujjatlarida qayd etilgan matnlarning binafsha rangda yozilgan matnlar bugungi kunda ko'rmsiz holatga kelib qolgan. Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston SSR Markaziy ijro qo'mitasi ish yuritish jarayonida "Lenotip" mashinkalaridan foydalangan [13]. Ushbu yig'majilda "Lenotip" mashinkasining klavaturalari haqida ko'rsatmalar mavjud.

Arxiv fondlari orasida bosma shakldagi hujjatlar, gazeta parchalari ham uchraydi. Ko'p hollarda chiqarilgan qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash maqsadida tipografik shaklda ko'rsatmalar nashr etilgan. Bosma hujjatlar asosan kiril va arab alifbosida uchraydi.

Hujjatlarning yozuvlari neografiya yoki neopoleografiya maxsus tarix fani tadqiqot usullari yordamidagi tahlili maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixidan ma'lumki, VII asrdan keyin mintaqada arab alifbosidan rasmiy davlat ish yuritish tizimi, ilm-fan sohasida keng foydalanila boshlangan. Ammo O'rta Osiyo hududlarida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini o'rnatilishi o'ikaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida tub o'zgarish yasadi. Eng avval Rossiya imperiyasining davlat tili bo'lmish rus tili va kyril alifbosi davlat ish yuritish tizimiga joriy etilgan bo'lsa, keyinchalik bu jarayonlar nashriyot, davriy matbuot, ta'lim tizimi, adabiyot va boshqa sohalarni qamrab oldi hamda arab alifbosi asosida shakllangan eski o'zbek tili keyinchalik (1927 yildan keyin) muomalanadan chiqarildi. 1924 yilda Turkiston o'lkasida tashkil etilgan respublikalarning barchasi davlat boshqaruv tizimi hududiy bo'linish sohalarida katta o'zgarishlar bo'ldi.

RSFSRda 1920 yillarda boshlangan lotin alifbosiga o'tish jarayonlari 1937 yilda uning batamom kiril alifbosiga o'tish bilan yakunlandi. Shu sababli O'zbekiston SSR davrining 1937 yilgacha bo'lgan ish yuritish hujjatlari kirill, lotin va arab alifbosida qayd etilgan. Hujjatlar asosan rus, o'zbek tillarida yozilgan. Ammo SSSR davrida mavjud bo'lgan Millatlar ishlari bo'yicha xalq komissarligi tarkibidagi turli millat vakillarining bo'limlarida polyak, yahudi, nemis, ingлиз va boshqa tillaridagi hujjatlarni ham ko'rish mumkin. Ammo shuni qayd etish lozimki, o'zbek tilidagi arab va lotin alifbosida qayd etilgan matnlarning lingvistik tahviliga ko'ra, hujjatlardagi matnlar eski turkiy til lahjasida, 1937 yildan keyin kiril alifbosida qayd etilgan matnlar hozirgi o'zbek tilining ish yurtish, so'zlashuv uslubiga mos bo'lib, ko'plab ruscha yoki xalqaro atamalar uchraydi.

MIQ va XKS fondlaridagi juda ko'plab hujjatlarda 1929 yilgacha bir tomonida rus tilida, bir tomonida arab alifbosidagi o'zbek tilida bitilgan. Chunki sovet hokimiyyati o'rnatilgach, butun mamlakatda hujjatchilik, idoraviy ish yuritish asosan rus tilida olib borilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ba'zi hollarda arab alifbosidagi matnlar qo'lyozma, pechat qilish mashinkasi va bosma turlari uchraydi.

Hujjatlar orasida ko'pgina fuqarolarning murojaat yoki ko'rsatma (masalan tergov jarayonidagi) hujjatlarda arab alifbosidagi eski turkiy tilda qalam va ruchkalarda yozilgan hujjatlarni ham uchratish mumkin [14]. Qo'lyozma hujjatar ko'k siyoh ruchkalarida, grafitli qalamning qora, qizil, havorang ranglarda qayd etilgan. Qizil va havorangli qalamlarda faqatgina mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar matnidagi ayrim muhim jumlalarni belgilash, ayrim hollarda imzo ham chekilganini ham ko'rish mumkin [15].

O'zMAda uchraydigan hujjat turlaridan biri bu mikrofilm hujjatlari bo'lib, ular qog'ozli hujjatlarning sug'urta nusxalarini hisoblanadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, O'zMAda arxiv hujjatlarini mikrofilmlashtirish ishlari asosan Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi jarayonlariga oid hujjatlarga e'tibor qaratilgan. O'zbekiston SSR va Mustamlaka davriga oid arxiv hujjatlarining mikrofilmlashtirilgan nusxasi uchramaydi.

Bugungi kunda butun jahon miqqiyosida nafaqat arxiv hujjatlarini balki tarixiy manbalarning raqamli nusxalarini yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Arxiv hujjatlarini raqamlashtirishda eng kamida ikki nusxasi yaratiladi. Juhon tajribasida qog'ozli hujjatlarning raqamli nusxasini yaratishda TIFF i JPEG formatlaridan keng foydalaniladi [16]. O'zMAda ham tasviriy ma'lumotlarni saqlashda TIFF formati ko'proq keng qo'llaniladi, chunki ma'lumotlarni kichraytirib saqlash algoritmiga ko'ra tasvirli ma'lumotlar aniq saqlanadi. JPEG formatida tasvirli ma'lumotlarni saqlashda ayrim yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Shuning uchun ushbu

formatda tasvirli ma'lumotlarning so'nggi texnik qayta ishlangan nusxasini saqlash tavsisi etiladi. Elektron hujjatlarning yaratishning xalqaro moyoriy huquqiy masalalari bo'yicha dastlab 2003 yil sentabr-oktabr oylarida Parijda Yuneskoning 32 sesiyasi va bosh konferensiyasida raqamli merosni saqlash bo'yicha xartiya qabul qilingan [17].

O'zMAda arxiv hujjatlarini raqamli nusxasini yaratishda ularni davriga ko'ra alohida hisob kitob ishlari amalga oshirilmagan. Shu sababli sovet davri bo'yicha raqamlashtirilgan arxiv hujjatlari bo'yicha aniq statistik ma'lumot aytish mumkin emas. Hozirda arxiv hujjatlarini raqamli nusxalarini yaratishda pdf, tiff formatlaridan keng foydalanilmoqda [18].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, arxiv hujjatlarining manbaviy tahlili ularning tarixiy ahamiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Milliy arxivini bugungi kunda O'zMAda 1,8 mln. dan ortiq tarixiy hujjatlar saqlanib, ularning 800 mingdan ortig'i sovet davriga tegishli hisoblanadi.

O'zMAdagi O'zbekiston SSR tarixiga doir arxiv hujjatlari shakli yoki turiga ko'ra, qog'oz, mikrofilm va raqamli ko'rinishda saqlangan.

O'zbekiston SSR arxiv fondlarida saqlanayotgan qog'ozli hujjatlar qog'ozlarda qayd etilgan matnli hujjat, ilmiy texnik va bosma shakldagi (gazeta, instruksiya varaqlari va boshqalar.) hujjat turlariga ajratish mumkin. Fondlar tarkibidagi qog'ozlar och va to'q novvot, ko'k, to'k ko'k (asosan loyiha hujjatlarida uchraydi) ranglarda bo'lib, asosan qora, binafsha rangli siyohlarda ma'lumotlar qayd etilgan. Qog'ozli hujjatlarda ma'lumotlar qo'lyozma, pechat mashinkasi va bosma shaklda qayd etilgan.

Qo'lyozma hujjatlar qalam, siyohlari ruchkalarda yozilgan. Qalamda qayd etilgan matnlari qizil, ko'k rangda ko'p uchraydi. Ba'zi hollarda qizil qalamda imzo quylganini ham ko'rish mumkin. Siyohlari ruchkalardagi matnlari ko'k, qora, to'q ko'k ranglarda uchraydi. Ruchkalarda matnlari ko'proq fuqarolarning ariza murojatlari, anketa hujjatlarida o'chraydi.

O'zbekiston SSR davlat organlarining ish yuritish hujjatlarining katta qismi pechat qilish mashinkalarida qayd etilgan. Pechat qilish mashinkalarida qayd etilgan matnlari binafsha, qora, to'q ko'k, ayrim hollarda pushti rangda ham uchraydi. Bosma hujjatlar asosan kiril, lotin va arab alifbosida uchraydi. Bugungi kunda sovet hujjatlarining ham katta qismi raqamlashtirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Черноморский М.Н. Источниковедения истории СССР (советский период). -М.: Высшая школа. 1966. 343 стр.
2. Кулешов С.Г. Документ как исторический источник: свойство, состояние, статус. // Архивоведение и источниковедение отечественной истории. Проблемы взаимодействия на современном этапе. Доклады и тезисы выступлений на третьей Всероссийской конференции. 25-26 февраля 1998 г. М., 1999.-С.95-96
3. Бурова Е. М. Архивный документ как объект изучения: история и современность //Документ. Архив. История. Современность. - Екатеринбург, 2010. – 2010. – С. 22-33.
4. Хворова И.Е. Процесс оцифровки документов для создания электронного архива. // История и архивы. 2017. –С.22-29 (<https://cyberleninka.ru/article/n/protsess-otsifrovki-dokumentov-dlya-sozdaniya-elektronnogo-archiva/viewer>)
5. Мандральская Н.В. Аудиовизуальные источники историко-партийной науки и их использование в изучении деятельности партий: на материалах Узбекистана периода Великой Отечественной войны 1941–1945 гг.: Дис... канд. ист. наук. – Ташкент: ТашГУ. 1981. – 328 с.
6. Ланда Л.М., Халфин А.Н. Документальные материалы центральных государственных архивов Узбекистана. (вопросы истории).1947.№8. –С.152-154; Госдарственные архивы СССР. (краткий справочник), М.1956, -С.374-376
7. Иоффе В.Г., Г.П. УФИМЦЕВ. Личные фонды архивов и архивы музеев Узбекистана – ценные источники по истории русской диаспоры в средней азии. //Журнал "Вестник архивиста".2012.№3.230-237 стр.
<https://www.vestarchive.ru/2015-2.html>
8. Тихонов В. И. Архивная теория В. Н. Автократова: анализ основных положений и подходов // История и архивы. 2015. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/arhivnaya-teoriya-v-n-avtokratova-analiz-osnovnyh-polozheniy-i-podkhodov> (дата обращения: 05.10.2022).
9. Чориев, Ш. Ш. (2016). Из истории формирования фондов государственных органов Туркестанской АССР. *Документ. Архив. История. Современность.* - Екатеринбург, 2016, 209-212.
10. Кулешов С.Г. Документ как исторический источник: свойство, состояние, статус. // Архивоведение и источниковедение отечественной истории. Проблемы взаимодействия на современном этапе. Доклады и тезисы выступлений на третьей Всероссийской конференции. 25-26 февраля 1998 г. М., 1999.-С.95-96
11. Бурова Е. М. Архивный документ как объект изучения: история и современность //Документ. Архив. История. Современность.- Екатеринбург, 2010. – 2010. – С. 22-33.
12. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги “Ахборотлаштириш тўғрисида” ва “Электрон рақамли имзо тўғрисида” хамда 2004 йил 29 апрелда Олий Мажлис томонидан қабул қилинган “Электрон хужжат алмашинуви тўғрисида”ти конунлар архив муассасалари фаолиятини ислоҳ этишда етарлича хуқукий-меъёрий база яратилишида мухим омил бўлиб хизмат килмоқда.
13. ЎзМА, Р-86-фонд, 1-фонд, 5911-йигмажилд
14. ЎзМА, Р-1714 –фонд, 1-рўйхат, 427-йигмажилд
15. Масалан, Қаранг: ЎзМА, Р-93, 1-рўйхат, 2-рўйхат, 1-варақ
16. Хворова И.Е. Процесс оцифровки документов для создания электронного архива. // История и архивы. 2017. –С. 22-29)
17. UNESCO. General Conference; 32nd; Records of the General Conference, 32nd session, Paris, 29 September to 17 October 2003, v. 1: Resolutions; 2004
18. Choriev, S. S. (2017). Classification of the Turkestan ASSR documentation in the Central State Archive of the Republic of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(56), 50-54.